



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 25 - iyul

I-61-127-14-220-K/23

Yangihayot tuman hokimligi

Yangihayot tumanida 2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarning ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha belgilangan loyihalar ijrosini nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 8-noyabrdagi KQ-423-IV-son va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-408-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Yangihayot tumani hokimi X.Inogamovning "Yangihayot tumanida 2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarning ijrosi to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangihayot tumani hokimining qurilish kommunikatsiyalar kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (D.Xalisov)ga:

"Marhamat" mahallasida Nuroniylar choyxonasi binosining umumiy qurilish ishlari 100%ga, "Yangi umid" mahallasida zamonaviy Sport sog'lomlashtirish markazining umumiy qurilish ishlari 90%ga va Toshkent halqa avtomobil yo'lining "Yangi Choshtepa" mahallasi hududidan o'tuvchi qismida barpo etilayotgan yer usti piyodalar o'tish yo'lagi qurilish ishlarining 90%ga bajarilganligi inobatga olinsin va mazkur loyihalar bo'yicha ishlarni yakuniga yetkazish choralari ko'rilsin;

mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, mahallalardagi hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari va yoshlar yetakchilari, ommaviy axborot vositalari va boshqa jamoat tashkilotlari loyihalarning ijrosi to'g'risida amalga oshirilayotgan ishlarning holati, sifati va ko'lami yuzasidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga jalb qilinishi ta'minlansin.

3. Loyihalarga biriktirilgan Kengash deputati, joylarga chiqqan holda, mahallalardagi loyihalarning yakuniga yetkazish ustidan nazoratni va aniqlangan kamchilik hamda muammolarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilishini taʼminlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi S.Vafayevga va ijrosini taʼminlash tuman hokimining oʻrinbosari D.Xalisov zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi**



X.Inogamov